

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2021 yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining shahar va tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda.

Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 2 327,6 ming so‘mni tashkil etgan holda, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida (2 922,9 ming so‘mni 125,6 %), kuzatildi.


O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi* (ming so‘mda)

	2020 yil yanvar-iyun	2021 yil yanvar-iyun	2020 yilga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	2 093,7	2 327,6	111,2
Samarqand sh.	2 547,3	2 922,9	114,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	1 948,4	2 060,7	105,7
tumanlar:			
Oqdaryo	1 683,6	1 839,6	109,2
Bulung‘ur	1 797,7	1 899,4	105,6
Jomboy	2 318,8	2 284,8	98,5
Ishtixon	1 723,9	1 862,0	108,0
Kattaqo‘rg‘on	1 726,6	1 836,8	106,4
Qo‘shrabot	1 752,4	1 943,4	110,9
Narpay	1 718,6	2 215,2	128,9
Payariq	1 690,5	1 902,8	112,5
Pastdarg‘om	2 173,5	2 246,4	103,3
Paxtachi	1 624,3	1 849,2	113,8
Samarqand	1 776,1	2 033,8	114,5
Nurobod	1 912,4	2 135,0	111,6
Toyloq	2 015,2	2 011,9	99,8
Urgut	1 782,3	2 107,9	118,2

**) Qayta hisoblangan, kichik tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz*

2021 yil yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining shahar va tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning mos davriga nisbatan 11,2 foizga oshgani holda, o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori sur‘atlari Narpay tumanida 28,9 foiz, Urgut tumanida 18,2 foiz, Samarqand shahar 14,7 foiz, Samarqand tumanida 14,5 foiz, Paxtachi tumanida 13,8 foiz ga o‘sgani kuzatildi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021 yil yanvar-iyun holatiga, viloyatga nisbatan, % da)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-iyun, ming so‘mda)

